



MODERN EDUCATIONAL
SYSTEM AND INNOVATIVE
TEACHING SOLUTIONS

European Science International Conference

www.esiconf.com

- Pedagogy
- Medicine
- History
- Law
- Art
- Business



European science international conference:

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS



**ESIC
EUROPEAN
SCIENCE
INTERNATIONAL
CONFERENCE**



**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND
INNOVATIVE TEACHING
SOLUTIONS**

**Volume 5
SEPTEMBER 2023**

**Paris, France
20th September 2023**

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS: a collection of scientific works of the International scientific conference (20th September 2023) – France, Paris : "CESS", 2023. Volume 5.

Chief editor:

John Smith - PhD Drew University, The USA.

Editorial board: Monica Boyd - PhD Toronto university, The USA

Alex Smalls - PhD Wilmington university, The USA

Prof Chris - PhD University of Surrey, France

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն...

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

"MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS". Which took place in Paris on July, August 20th, 2023.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.


© "CESS", 2023

© Authors, 2023

TABLE OF CONTENT

Hamrayeva Oynisa Farxod qizi <i>OLIY TALIM MUASSALARI TALABALARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	6
Rakhimov A.P Yunusov R.Kh. <i>EFFECT OF CHANGES IN MEAN ARTERIAL PRESSURE AND INTRACRANIAL PRESSURE ON BRAIN PERFUSION IN PATIENTS WITH TRAUMATIC BRAIN INJURY.</i>	11
Rakhimov A.P Yunusov R.Kh. <i>THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF BUPIVACAINE IN SMALL DOSES IN SPINAL ANESTHESIA IN SURGICAL OPERATIONS IN PATIENTS WITH PURULENT NECROTIC COMPLICATIONS OF DIABETIC FOOT</i>	12
Toshpo'latov Mamadali Zayniddin o'g'li <i>FUQAROLIK JAMIYATINING MILLATLARARO MUNOSABATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI</i>	14
Toshpo'latov Mamadali Zayniddin o'g'li <i>ZAMONAVIY FUQAROLIK JAMIYATININI XARATISH - DAVL TALABI</i>	18
Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi <i>STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING TANQIDIY-TAHLILIIY HAMDA KREATIV FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISH</i>	21
Zakhidov Mukhtar Makhmudovich <i>A LOGICAL STUDY OF THE MANUSCRIPTS OF NAVAI'S 'ARBAIN'</i>	27
Косимова Малохатхон Каримовна, Абдуллаев Шавкат Азимович <i>ТУПРОҚҚА ИШЛОВ БЕРИШДАГИ АСОСИЙ АГРОТЕХНИК ТАЛАБЛАР, ТУПРОҚНИНГ БИЙЛИКЛИК ХОССАЛАРИ ВА УЛАРНИ ИШ ОРГАНЛАРИНИНГ РЕСУРСИГА ТАЪСИРИ</i>	29
Isroilov Sherzodbek, Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li <i>OB-HAVO SHAROITLARINING SHAHAR YO'NALISHLARIDA AVTOBUS QATNIOVIGA TA'SIRI</i>	37
Исроилов Ш.Ш., Хомидов А.А. <i>МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СУЩЕСТВУЮЩЕЙ ОРГАНИЗАЦИИ ПАССАЖИРСКИХ ГОРОДСКИХ ПЕРЕВОЗОК.</i>	45
Umaraliyeva Go'zal Komiljonovna <i>STRUCTURE AND LIFESTYLE OF UNGULATE FISH</i>	51
Umaraliyeva Go'zal Komiljonovna <i>ANATOMY OF FISH</i>	53
Razakov Farxod Kuvandikovich <i>UMUMTA'LIM MAKTABLARIDAGI PEDADGOGLARDA O'Z USTIDA ISHLASH SAMARADORLIGINI EMPIRIK ASOSLARI</i>	55
Safarov Alisher Bekmurodovich, O'lmasov Qudrat Norqul o'g'li <i>BUKHARA PROVINCE IN THE TERRITORY THE SUN FROM ENERGY USAGE OPPORTUNITIES RESEARCH</i>	63
Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi <i>BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA RAQAMLI</i>	68

<i>TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.</i>	
Azimov Farkhod Abdikhalimovich <i>NEW APPROACH IN EDUCATION</i>	71
Halimova Makhbuba Turakulovna <i>THE BENEFITS OF FRENCH NATIONAL CUISINE FOR THE HUMAN ORGANISM</i>	77
Boboqulova Gulasal Bobir qizi. <i>A PHILOSOPHICAL APPROACH TO THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS MEANING "LIFE" AND "DEATH" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.</i>	79
Kholmurodova Shahnoza Ganisher qizi <i>ROLE OF MUSEUMS AND ART GALLERIES IN ART TOURISM</i>	86
Abdullaev G'ofurjon Raximjonovich, Ikramova Nodira Mahmudovna <i>STUDYING OF THE BIOLOGICAL, PSYCHOLOGICAL, AND SOCIAL ASPECTS OF AGING</i>	89



Toshpo'latov Mamadali Zayniddin o'g'li

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Maqolada Fuqarolik jamiyati tushinchasining kelib chiqishi, uni qanday mezonlar asosida qurish mumkinligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada fuqarolik jamiyatini barpo etishda milliy qadriyatlarning o'rniga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Fuqarolik jamiyati, qonun, "Avesto", "Fozil odamlar shahri", qadriyat, ozodlik, tinchlik, demokratiya.*

СОЗДАНИЕ СОВРЕМЕННОГО ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА-ТРЕБОВАНИЕ ЭПОХИ

Аннотация. В статье рассматриваются истоки понятия гражданское общество, по каким критериям оно может быть построено. Также в статье особое внимание уделяется роли национальных ценностей в построении гражданского общества.

Ключевое слова: *гражданское общество, закон, "Авеста", "Город добродетельных людей", ценность, свобода, мир, демократия.*

CREATION OF A MODERN CIVIL SOCIETY-THE DEMAND OF THE ERA

Abstract. The article reflects on the origin of civil society dream, on what criteria it can be built on. The article also specifically addresses the place of national values in the establishment of civil society.

Keywords: *civil society, law, "Avesto", "City of friendly people", value, freedom, peace, democracy.*

Fuqarolik jamiyati - konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli; insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzum. [1] Bunda mamlakatning har bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar.

Fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadilar, davlatning ko'pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Davlat hokimiyati esa mamlakatning umumiy taraqqiyot rejalarini tuzadi, uning strategiyasini ishlab chiqadi, mudofaa, milliy xavfsizlik, davlat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini, uning suverenitetini ta'minlash, pul-moliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat va jahon hamjamiyati bilan aloqalar tizimini yaratadi, uni boshqaradi. Fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma bosqich o'tish orqali ro'y beradi.

Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning "Siyosat" asarida bayon etilgan.[2] Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bu g'oyalar XVII asrga kelib keng rivojlandi.

Jumladan, T.Gobbs asarlarida takomillashtiriddi. XVIII asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan esa fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huquqli a'zolari — "fuqarolar" tushunchasi paydo bo'ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlarini bilan bog'langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar.

Sharqda Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan, fe'l atvor, xatti harakatlar va qoida me'yorlarning uzviy uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Jumladan, eng qadimiy madaniy tarixiy huquqiy yodgorlik — Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me'yorlarga tayanishi kabi g'oyalar ilgari surilgan. Bunda o'z o'zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi kabi fuqarolik jamiyatining ilk belgilari namoyon bo'lgan. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan.[3] Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan. Forobiyning fikriga ko'ra, "Shahar (mamlakat) aholisi xush xulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi"[4], jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiy ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish tarixiy an'ana bo'lsada, u butunlay yangi tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari va ko'p ming yillik milliy an'analarning sintezi sifatida dunyoga kelmoqda. Ya'ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy huquqiy faollik, hurriyat va qat'iy tartib-intizom uyg'unligida fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda.

Bunday fikr bildirishimizga muayyan tarixiy sharoitlarda obyektiv zaruratlar tufayli jamiyat rivojlanishi uchun milliy qadriyatlar diniy qarashlar bag'rida

shakllanganligidir. Shunga ko'ra bizning milliy qadriyatlarimiz faqat islom zaminida vujudga kelmagan, balki zardushtiylik, buddaviylik kabi dinlardan ham ko'p narsalarni olgan. Binobarin, har qanday qadriyatlarning bosh manbai ijtimoiy hayotdir.

Uning zaruratini birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov alohida va bir necha marta ta'kidlab kelgan. "Mustaqillik yillarida eng katta qo'lga kiritgan yutuqlarimizdan biri tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma'naviy yuksalishidagi o'rni va ahamiyatini qayta tiklanganligidir. Ayni zamonda, tajovuzkor aqidaparast kuchlar islom dini xalqimiz uchun muqaddas qadriyat ekanligidan foydalanib, O'zbekistonni demokratik, ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan og'dirishga intilmoqdalar [5]. Keyingi yillarda dunyo miqyosida islomdan qarama-qarshi maqsad yo'lida foydalanishlar yaqqol namoyon bo'lmoqda [5].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, insoniyatning eng umumiy jamoasi bo'lgan jamiyatgina, umuminsoniy qadriyatlarning yaratguychisi va saqlab turuvchisidir. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko'lamli va serqirra tushuncha. Uning zaminida eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt-saodati kabi umumijtimoiy mahno va mazmun kashf etadigan qadriyatlardan iborat, deyish mumkin. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma'naviy boyliklar sifatida tushunish va uni shunday izohlash ham ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri emas.

REFERENCES:

1. (2023). — 2023, 169-174.
2. Toshpo'latov, M. (2023). FUQAROLIK JAMIYATI: TARIXIY VA ZAMONAVIY MODELLARI. Tadqiqotlar kutubxonasi, 1(6), 1-114.
3. Toshpo'latov, M. (2023). HISTORY OF CIVIL SOCIETY CONSTRUCTION: CHANGES AND PROSPECTS. Modern Science and Research, 2(9), 9-13.
4. Toshpo'latov, M. (2023). CHARACTERISTICS OF CIVIL SOCIETY IN THE MODERN ERA. Modern Science and Research, 2(9), 13-19.
5. (2023). (44 (174)), 94-97.
6. Toshpo'latov, M. (2023). FUQAROLIK JAMIYATINING MILLATLARARO MUNOSABATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI. Tadqiqotlar kutubxonasi, 1(9), 14-17.